

**Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi xodimlari tomonidan
haftalik qilingan ishlar yuzasidan
MA’LUMOT**

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoniga (**99 353 93 54**)ga 6-11 mart kunlari **262 ta** fuqarolar murojaat qildi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligidan kelgan “**sms**” xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og‘zaki murojaatlari** bo‘ldi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoniga hafta davomida imtiyozga ega fuqarolardan **e’tirozli 8(3%)ta og‘zaki murojaatlari** kelib tushdi.

Shulardan:

Bolalar milliy tibbiyot markazida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **uch nafar bemorlar** davolash sifatidan va shifokorlar qarovidan;

Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan bemor davolanish uchun shifokorlar dori vositalari yo‘qligidan dorilar ro‘yxatini yozib berayotganligidan;

Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan bemor davolanish sifatidan va hamshiralalar muomilasidan;

Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan bemor shifoxona sharoitidan;

Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Namangan filialida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan bemor shifokorlar tomonidan davolanish uchun dori vositalari yo‘qligi uchun dorilar sotib olishga ro‘yxatlar yozib berayotganligi yuzasidan noroziligini bildirib Jamg‘armaning ishonch telefoniga **og‘zaki murojaatlari** qildilar.

Ushbu murojaatlar bo‘yicha shifoxona mas’ullariga va xududiy bosh mutaxassisiga telefon orqali ma’lumotlari berildi, tibbiyot muassasa mas’ullariga bemorlar e’tirozi o‘rinliligi yuzasidan tushuntirildi, **og‘zaki murojaatlari ijobiy hal qilindi.**

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida yashovchi fuqaro **jigar ko‘chirib o‘tkazishga** muxtojligi yuzasidan moddiy yordam so‘rab **og‘zaki murojaat** qilib keldi. Murojaat qilib kelgan fuqaroga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyuldagagi PQ-5199-sonli qarorida belgilangan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga **imtiyozli yo‘llanma orqali barcha bemorlarga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar bepul bo‘lishi ya’ni Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi tomonidan Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan qoplab berilishi tushuntirildi.**

**Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi
Matbuot xizmati.**